FASILITATOR YONDASHUVI ASOSIDA XORIJIY TILLARNI O‘QITISH METODIKASI

Xamidova Sabrina Abduvahob qizi
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta’limda muhim o’rin tutayotgan fasilitator (yoki yordamchi, yo’naltiruvchi) yondoshuvi haqida fikr yuritiladi. Xususan, xorijiy tillarni o’qitish jarayonida fasilitatorning roli, usullari va natijadorligi tahlil etiladi. Shu bilan birga, an’anaviy o’qituvchi modelidan farqli ravishda, talabani faol ishtirokchiga aylantiruvchi faol ta’lim muhitini yaratishga e’tibor qaratiladi.

Kalit so’zlar: xorijiy tillar, fasilitator, an’anaviy, model, yaratish, to’ldirish, shaxsiy va kasbiy, metodik yondashuvlar, interaktiv.

Abstract: This article discusses the facilitator (or assistant, guide) approach, which plays an important role in modern education. In particular, the role, methods and effectiveness of the facilitator in the process of teaching foreign languages are analyzed. At the same time, unlike the traditional teacher model, attention is paid to creating an active learning environment that turns the student into an active participant.

Keywords: foreign languages, facilitator, traditional, model, creation, complementation, personal and professional, methodological approaches, interactive.

Bugungi kunda ta’lim sohasidagi global o’zgarishlar fonida o’qituvchidan talabalarni bilim bilan "to’ldirish" emas, balki ularning faol ishtirokini rag’batlantirish, mustaqil izlanishga undash kabi vazifalarni bajarish talab etilmoqda. Bu jarayonda o’qituvchi fasilitator, ya’ni yo’naltiruvchi, ko’makchi sifatida faoliyat olib boradi. Xususan, xorijiy tillarni o’rgatish jarayonida bu yondashuv o’ta samarali natijalarni bermoqda. Bugungi kunda globallashuv va axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida xorijiy tillarni bilish nafaqat bilim darajasini, balki shaxsiy va kasbiy o’sish imkoniyatlarini ham belgilaydi. Shu bois, til o’rgatishdagi an’anaviy yondoshuvlardan zamonaviy, interaktiv va shaxsga yo’naltirilgan metodlarga o’tish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu metodlardan biri - fasilitatorlik yondoshuvidir.

Fasilitator - bu an’anaviy ma’noda darsni faqatgina tushuntiruvchi emas, balki talabalarni o’ylashga, mulohaza qilishga, mustaqil izlanishga undaydigan shaxsdir. U dars jarayonida yo’l-yo’riq ko’rsatadi, muhit yaratadi, faol muloqotni rag’batlantiradi va talabaning shaxsiy o’sishiga ko’maklashadi.

Fasilitator-o’qituvchining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: Qulay muhit yaratish: Talabalar o’z fikrlarini erkin bayon eta oladigan, xato qilishdan qo’rqmaydigan, o’zaro hurmat va ishonchga asoslangan psixologik qulay muhitni yaratish.

Jarayonni boshqarish: Munozaralar, guruh ishlari va loyihalarni samarali tashkil etish, barcha talabalarning faol ishtirokini ta’minlash va jarayonni belgilangan maqsad sari yo’naltirish.

Resurslar bilan ta’minlash: Talabalarga kerakli axborot manbalarini, o’quv materiallarini tavsiya qilish va ulardan samarali foydalanish yo’llarini o’rgatish.

Refleksiyani rag’batlantirish: Talabalarni o’z o’quv faoliyatini tahlil qilishga, yutuq va kamchiliklarini anglashga va kelgusi rivojlanish yo’llarini belgilashga undash.

Xorijiy tillarni o’rgatishda fasilitatorning vazifalari: dars maqsadlarini birgalikda belgilash; interaktiv va ijodiy faoliyatlarni tashkil qilish; har bir talabaning ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olish; yaxshi til muhitini yaratish; muloqot markazida talabalarni qo’yish; talabalar o’rtasida hamkorlik muhitini shakllantirish.

Bunda talabalar faol ishtirok etadi; tilda erkin muloqotga kirishadi; ijodiy fikrlash rivojlanadi; jamoaviy ishlash ko’nikmalari shakllanadi; ta’lim sifati oshadi. Fasilitatorlik yondoshuvi xorijiy tillarni o’rgatishda yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu yondashuv talabalarning faolligini oshirib, ularni mustaqil o’rganuvchi va muloqotchi sifatida shakllantiradi. Zamonaviy dunyoda tilni nafaqat grammatik me’yorda, balki muloqot vositasi sifatida o’rgatishda fasilitatorning roli beqiyosdir.

Talabalarga: fasilitatorlik bo’yicha seminarlar tashkil etish;
darslarda interaktiv metodlar ulushini oshirish;
talabalarning shaxsiy o’rganish strategiyalarini rivojlantirish;
elektron resurslardan samarali foydalanish.
Fasilitator yondoshuvida samarali metodlar

Xulosa qilib aytganda, Fasilitator yondashuvi xorijiy tillarni o’qitishni yanada jonli, amaliy va talabalar uchun qiziqarli jarayonga aylantiradi.U o’quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga, bilimni iste’mol qiluvchidan uni mustaqil izlab topuvchi va yaratuvchi shaxsga aylantiradi. Kommunikativ, vazifaga va loyihaga asoslangan metodikalarni qo’llash orqali fasilitator-o’qituvchi nafaqat til bilish darajasini, balki talabalarning o’ziga bo’lgan ishonchini, muloqot madaniyatini va mustaqil ta’lim olish ko’nikmalarini ham rivojlantiradi. Zamonaviy ta’lim tizimida raqobatbardosh mutaxassis bo’lishni istagan har bir xorijiy til o’qituvchisi fasilitatorlik kompetentsiyalarini egallashi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dimuxametov R.S. Fasilitatsiya - novaya rol metodista (prepodavatelya) instituta povo’sheniya kvalifikatsii G’G’ Vestn. Chelyab. gos. ped. un-ta. Ser. 3,
2. Aktualno’e problemo’ obrazovaniya podrastayuhego pokoleniya. - 2004. - № 26. - S. 226-236. (0,7 p. l.).
3. Jijina I.V. Psixologicheskie osobennosti razvitiya fasilitatsii pedagoga: diss. ... kand. psixol. nauk: 19.00.07 G’ I.V. Jijina. – Ekaterinburg: Uralskiy gos. prof.-ped. un-t, 2000. – 153 s.
4. Ya. Nurumbekova, D. Toshtemirov, Yo. Faxriddinov. Umumiy pedagogika. Darslik.– GulDU-2022.
5. Ya. Nurumbekova. Umumiy pedagogika va psxologiya. Darslik – GulDU-2023.